



## BUGUNGI KUNDA CHIQINDILARGA TO`GRI YONDASHUV DAVR TALABI

*Maxammadiyev Asadulla Sharofiddinovich*

*Termiz davlat universiteti*

*Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrası o`qituvchisi*

*e-mail: maxammadiyevasadulla95@gmail, Tel: 998 97 690 30 10*

*Xudoyberdiyeva Sarvinoz Abdurasul qizi*

*Termiz davlat universiteti*

*Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo`nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada atrof-muhit kuchli ifloslanishga uchrayotganligi, O`zbekiston Respublikamizda chiqindini qayta ishlash bo`yicha salmoqli ishlar, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasining statistik ma`lumotlari yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Chiqindilar, Polietilen paketlar, umumiy chiqindilar miqdori, chiqindilarni qayta ishlash, qayta ishlash korxonalarini, chiqindi poligoni.

**Аннотация:** В статье освещается факт сильного загрязнения окружающей среды, значительная работа по переработке отходов в Республике Узбекистан, статистические данные Государственного комитета экологии и охраны окружающей среды.

**Ключевые слова:** Отходы, полиэтиленовые мешки, общее количество отходов, переработка отходов, перерабатывающие предприятия, полигон.

Hozirgi kunga kelib zamonaviy dunyo ko`plab muammolardan aziyat chekmoqda. Bu muammolardan biri jamiyat va tabiat o`rtasidagi munosabatlarning kundan kunga buzilib borishidir. Atrof-muhit kuchli ifloslanishga uchrayapti, uning asosiy sababi tabiatning oliy mavjudoti bo`lmish biz insonlarmiz. Har bir inson bir kunlik faoliyati davomida o`rtacha 1-1,5 kg chiqindi chiqarishi aniqlangan bu maishiy va boshqa faoliyatlari natijasida yuzaga keladigan jarayondir.

Qog`ozdan tayyorlangan salfetka dengiz suvida 3 oyda, gugurt cho`plari – 6 oyda to`liq eriydi. Tamaki qoldig`i esa 5 yilgacha suzib yuradi. Polietilen paket suvni 10-12 yil davomida ifloslantiradi, neylon buyumlar 35 yildan keyin yo`q bo`ladi, temir banka butunlay yo`q bo`lishi uchun 500 yil kerak. Shisha butilka to`liq erishi uchun 1000 yil zarur bo`ladi.



Odamlar soni har yili oshib borishi, sanoatning kundan kunga rivojlanishi va transportlar soni ortishi va rusimi yangilaishi ortidan eski moshinalarning shunchaki chiqindilari ortishi ko‘payib borayotgan jarayon hisoblanadi. Shu kabilarning natijasi bo‘lgan chiqindi miqdori ham ortmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda chiqindilar muammosini hal qilish maqsadida turlicha ishlar, tadbirlar va loyhalar amalga oshirilmoqda. Bu kabi ishlar dastlab Angliyada boshlanganligi ma‘lum, Angliyada chiqindilarni qayta ishlash masalasiga aql bilan yondashgan ilk mamlakat hisoblanadi. 19 asrning oxirida chiqindilarni yoqish uchun zavod qurilgan bu jarayon chiqindilar muammosini biroz yumshashiga xizmat qilgan bo‘lsada bu to‘g‘ri yechim emas edi. Yevropa mamlakatlarida chiqindilar saralanib, keyin qayta ishlashga yuboriladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikamizda 80 dan ortiq chiqindini qayta ishlash korxonalari mavjud bo‘lib ular bir yilda mamlakatimiz bo‘ylab hosil bo‘ladigan chiqindining 10-15 foizini qayta ishlaydi. Bu qayta ishlanadigan chiqindilar asosan Polietilinteraftalat, ya'ni plasti (PET) idishlar, qog‘oz mahsulotlari, qora va metall buyumlar qayta ishlanadi.

O‘zbekiston Respublikamizda chiqindini qayta ishlash bo‘yicha salmoqli ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda bu borada Yevropa mamlakatlari, Shvetsiya kabi mamlakatlar tajribalari o‘rgailib, chiqindilarni qayta yuklash va utilizatsiya qilish sohalarida timizli ishlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Xususan Yakkasaroy chiqindilarni qayta yuklash stansiyasida tajriba tarzida chiqindini saralash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bir kunda u yerda 150-200 tonnagacha chiqindi saralanmoqda va qayta ishlashga yuborilmoqda.

Bundan tashqari Respublikamizda ayni paytda 13 ta sanitariya jihatidan tozalashga ixtisoslashtirilgan davlat unitar korxonalari hamda ularning tuman va shaharlardagi 174 ta filiali, shuningdek, «Maxsustrans» DUK hamda 101 ta xususiy korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra, hozirda Respublikamiz bo‘ylab 221 ta chiqindi poligoni mavjud bo‘lib, ularning maydoni 0,5 gektardan 70-80 gektargacha boradi. Ko‘pchilik poligonlarning foydalanish muddati 20-30 yilni tashkil etadi. Bu poligonlarda chiqindini joylashtirish talablariga o‘z vaqtida yetarli darajada e‘tibor berilmagan holda ish olib borilgan. Bugungi kunda chiqindilarni muammosini hal qilish bo‘yicha dunyoda yetakchi bo‘lgan davlatlardan biri bu Shvetsiya hisoblanadi. Shvetsiya – chiqindilarni muvaffaqiyatli qayta ishlaydigan mamlakatlar ro‘yxatida yetakchilik qiladi. Bu davlat umumiy chiqindilar miqdorining 52 foizni qayta ishlab qayta mahsulotlar ishlab chiqaradi. Undan keyingi o‘rinda esa – Germaniya: u yerda qayta



ishlash 48 foizni tashkil qiladi. Germaniyaniya ham chiqindilarni qayta ishlar ortidan ko`plab maxsulatlar ishlab chiqaradi.

Har soniyada sayyorada tabiatga zarar keltirmaydigan uch kilogramdan ortiq “tabiiy” chiqindi yuzaga keladi. Unga tuxum po‘chog‘i, mevalar po‘stlog‘i va boshqalar kiradi. Ovqat qoldiqlari aholi vakili chiqindi savatining 29 foizga yaqinini tashkil qiladi. Qolgan 13 foizi - shisha, 11 foizi – plastmassa, 4 foizi – metal chiqindilar bilan band. 18 foizi esa – boshqa turdagi chiqindilarga kiradi.

Kerak bo‘lmagan kompyuterlarni yo‘qotish garbologiyaning jiddiy muammolaridan sanaladi. Chunki eski texnika tarkibida zaharli moddalar bo‘lib, ular uchun yopiq holdagi chiqindixonalar zarur ammo bu kabi chiqindixonalar har doim ham talablarga javob bermaydi. 360 kun mobaynida metalni qayta ishlash 150 milliondan ortiq xonadonni yorug‘lik va issiqlik bilan ta'minlaydigan resurslarni saqlashda yordam beradi. Bor-yo‘g‘i bir dona shisha butilkani qayta ishlash quvvati yuz Vt lampochkaning to‘rt soat davomida yonishi uchun energiya ishlab chiqarishga tenglashtiriladi. Yuqoridagilardan ham bilash mumkin chiqindilarni qayta ishlash samarali va iqtisodiy o‘shishga va tabiatni asrashga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Global waste management outlook 2015.
2. Allaberdiyev R.X., Qo‘chqorov N.Y, Karimova D.A., Allaberdiyev F.X.Kimyoviy ekologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Vneshinvestprom, 2019.
3. Korotaev V.N., Slyusar N.N., Jilinskaya Ya.A., Пиных G.V., Filkin T.G. Upravlenie texnogennymi otxodami. Izdatelstvo Permskogo natsionalnogo issledovatel'skogo politexnicheskogo universiteta 2016.
4. A.Alimova, A.A.Yadgarov, L.Sh.Egamberdieva, A.A.Kazakov, Ekologiya, Darslik, Toshkent,2020
5. Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi statistik ma`lumotlari.
6. [t.me/ecogov.uz](http://t.me/ecogov.uz)
7. [www.uzneture.uz](http://www.uzneture.uz)
8. [www.ekonews.uz](http://www.ekonews.uz)